

G'ayratova E'zoza Akmaljon qizi

Guliston Davlat Universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlari, ularda qo'llangan badiiy san'atlar, badiiy san'at namunalari haqida ma'lumot beriladi. Shoirning badiiy san'at namunalaridan qay tarzda foydalanganligi bataysil yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Badiiy san'at turlari, tashxis, tashbih, mubolag'a, nido, tazod, jlonlantirish, shaxslar turish.

Har bir shoir ijodini badiiy san'atlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shoirlar o'z ijod namunalarini badiiy san'atlardan foydalanish orqali yanada jozibali va xalqona tarzda yaratadi. Muhammad Yusuf she'rlari badiiy san'atlarga boyligi bilan boshqa shoirlar asarlaridan tubdan farq qiladi. Badiiy san'at namunalariga tashxis, tashbih, mubolag'a, nido, tazod kabi san'atlar kiradi. Tashxis arab tilidan olingan bo'lib, shaxslantirish, jlonlantirish degan ma'nolarni bildiradi. Bu san'at turida turli narsalar, qushlar, hayvonlar, o'simliklarga insonlarning xususiyati ko'chiriladi, natijada jonsiz narsalar jonli tarzda ifodalanadi. Tashxis og'zaki nutqda ham, badiiy asarlarda ham keng qo'llaniladi. Tashbih arab tilidan olingan bo'lib, o'shatish degan ma'noni bildiradi. Tazod esa zidlantirish degan ma'noni anglatadi va u antonym so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi. Bu hodisalarning barchasi Muhammad Yusuf she'rlarida juda o'rinali ishlataligan.

Shoir o'zining "Yangi yil kechasi" she'rida "Qor"ga xuddi insonga murojaat qilgandek yuzlanadi va bu orqali nido, tashxis san'atlari yuzaga keladi.

Ko'ngil ma'yus tortdi yilning so'ngida
Bilmam nimang bilan sehrladigan, qor.
Bugun kuppa-kunduz ko'zim o'ngida,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yana bir yoshimni o'g'irlading, qor.

Yuqoridagi misralarda shoir qorni shunday jonlantirganki, xuddi u insonni sehrlab qo'ygandek, o'g'rilar singari qahramonning bir yoshini o'g'irlab qo'ygandek tasvirlangan. Bu bevosita "qor" insonning xususiyatini o'zida jamlaganligini anglatadi. Yana qorga murojaat qilish orqali nido san'ati yuzaga kelgan. Nido bu she'rda undalmaning qo'llanishidir. Yuqoridagi she'rda "Qor" so'zi undalma vazifasida kelgan va natijada nido san'ati vujudga kelgan.

Shoir o'zining "Xalq bo'l, elim" she'rida boshdan oyoq tashxis san'atidan foydalangan:

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,

Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon,-

misralari orqali adib o'zining shoirlilik mahoratidan ustuvorlik bilan foydalangan va va bu misralarda talmeh va jonlantirish san'atidan foydalangan. Yuqoridagi baytda Sohibqiron so'zi talmeh sifatida kelgan. Talmeh arabchadan olingan bo'lib, chaqmoq chaqilishi degan ma'noni anglatadi, bu badiiy san'atda shoir qadimiy joy, qadimiy afsona, taniqli shaxs nomini keltiradi. Shuning uchun yuqoridagi baytda Sohibqiron, ya'ni Amir Temur talmeh sifatida keltirilgan.

Oqib ketdi suvlarda Tohir,

Zuhro yig'lab qoldi qon bag'ir.

Kelganda ham qiyomat oxir,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Bu she'rda "qon bag'ir" so'zi istiora san"atini yuzga chiqargan. Istiora bu ona tili termini bilan nomlaganda "metafora"dir. Bu asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'atidir. Yuqoridagi misralarda ham bu san'at o'zining yorqin ifodasini topgan.

"Muhabbat" she'rida esa shoir tanosub san'atidan juda samarali foydalangan. Bunda iztirob bilan dard, ko'krak bilan yurak, g'am va anduh, yuz va ko'z so'zlari o'zaro tanosub san'atini yuzaga chiqargan. Tanosub bu she'rda ma'nodosh so'zlarning qo'llanishidir.

Quyidagi misralarda shoir epifora san'atini qo'llagan. Epifora-she'r oxirida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

takrorlanib keluvchi so'z.

Joningga jon bo'lmayman-u, sevaman,

Yoningga bir kelmayman-u, sevaman,

Ismingni ham bilmayman-u, sevaman,

Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Bunda “Sevmayman” so’zi orqali epifora vujudga kelgan.

Shoirning “Bilolim” she’ri tazod san’ati namunasi bilan boshlangan:

Kecha-yu kunduzi senda xayolim,

Umrin o’rtasida topgan zilolim.

Otangga arzanda o’g’il bo’l, lekin

Bilib qo’y, sen asli mening Bilolim.

Bunda kecha-yu kunduz so’zi orqali tazod san’ati ro’yobga chiqqan.

Har kimsaning bo’lsin o’zin boshpanasi,

Har kimsa o’z kulbasia davrin sursin,-

Misralarida esa anafora san’atidan foydalanilgan. Anafora bu she’rning boshida takrorlanib keluvchi so’z hisoblanadi. Yuqoridagi “Tilak” nomli she’rda “har kimsaning” so’zi takrorlanib kelgan va anaforani yuzaga keltirgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf she’rlari juda serma’no va sermazmun. Shoir har bir she’rida badiiy san’at vositalaridan mohirona foydalangan va o’quvchi ongiga bir umr mustahkamlanib qoladigan tarzda o’z she’rlarini pishiq va puxta yozgan. Hozirgacha hech bir shoirning she’rlari Muhammad Yusuf she’riyatichalik odamlarning yurak-yuragidan joy egallamagan, desak mubolag‘a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muhammad Yusuf. Saylanma.
2. Mohizar No'monova. Hamid Olimjon she'riyatida leksik takrorlar maqolasi.
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. - T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? - T.: Sharq, 2001.
5. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. - T.: O'qituvchi, 1995.